

“HUQUQSHUNOSLIK FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR”

Qoqon shahar kasb xunar maktabining Davlat va huquq fani o'qituvchisi

O'lmasova Nazokatxon Nizomjonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqshunoslik fani o'qitishda ishlataladigan zamonaviy interfaol metodlar, hamda talabalarni dars jarayonini yaxshi o'zlashtirishida zamonaviy metodlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: huquq, huquqshunoslik, siyosiy bilimlar, ijtimoiy normalar, interfaol metodlar.

Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirishda respublikamiz ta'lim tizimida o'qitilayotgan “Davlat va huquq asoslari” fanining o'rni va imkoniyati cheksizdir. Davlat, jamiyat ishlarini mukammal bilish uchun huquqiy bilimli, ongli, madaniyatli bo'lish davr talabi. Ushbu xususiyatlarni shakllantirishda ta'lim oluvchilarining mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv biluv faoliyatini faollashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim oluvchilarining o'quv-bilish faoliyatlarini ta'minlovchi va rivojlantiruvchi faol ta'lim metodlarini o'quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ta'lim oluvchilarни mustaqil va ijodiy yondoshgan holda muammolarni yechimini izlash, topish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faol ta'lim metodlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Har qanday ta'limning maqsadi – ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. O'quv faoliyatida ta'lim maqsadning barcha jihatlari amalga oshar ekan, turli ta'lim metodlarni birgalikda qo'llash zarur. Shuning uchun, ta'lim metodini tanlashda eng asosiy omil bo'lib aniq o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Ma'lumki , ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quv mashg'ulotlarida Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari asosida tashkil etish , mashg'ulotlarda o'quvchilarini

faollikka undash , ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iborat. DTS va o'quv dasturlarida belgilangan mana shunday vazifalar asosida so'nggi yillarda ta'lif muassasalarimizda Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda noan'anaviy usullardan keng foydalanilmoqda . Huquqshunoslik darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati katta.Chunki o'quv jarayoni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilsa ,o'quvchilarning erkin fikr yuritish qobiliyati shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston davlati va huquqi asoslari va Konstitutsiyaviy huquq darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish quyidagi uch jihatdan muhimdir:

1. Oquvchining hayotda o'z nuqtai nazariga ega bo'lishiga zamin yaratadi.
2. Oquvchi egallagan bilimi orqali shakllangan salohiyati va dunyoqarishi bilan to'g'ri yo'lni tanlashga yo'naltiradi.
3. Oquvchida shakllangan huquqiy-siyosiy madaniyat o'z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishiga ko'maklashadi.

Shu nuqtai-nazardan o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish har bir darsning maqsadi bo'lmos'hish lozim.O'quvchilarga huquqshunoslik darslarining o'tilishida bilish faoliyati orqali mustaqil fikrlash qobiliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogiktexnologiyalar ohgli intizomning yuqori darajada bo'lishini va ongli fikrlashning ortib borishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.Ana shunaday texnologiyalar jumlasiga didaktik o'yin, muammoli ta'lim,modulli ta'lim, kommunikativ ta'lim, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi kiradi.Bunday noan'anaviy shaklda tashkil qilingan darslar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.Huquq darslarini yanada qiziqarliroq olib borish uchun ahu kunning dolzarb mavzusi bilan bog'lash,mamlakatimizda chop etilayotgan gazeta va jurnallardagi tarixiy,huquqiy,siyosiy maqolalardan, qabul qiligan qonunlar va qonun osti hujjatlaridan keng ko'lamda foydalanish zarur.Bu kabi darslar o'quvchi faolligi va erkinligiga qaratiladi,ularning mustaqil fikr yuritishiga imkoniyat yaratadi. Metodika talabalarga nazariy bilim bilim bilan birgalikda undan foydalanish yo'llarini ham ko'rsatadi.

Nazariya fanning asoslarini, uning maqsad, fazifasi, dolzarbligini o`rgatadi. Huquq fanidan ko`pgina dars o`tish nazariyasini amalda qo`llash yo`llarini metodika o`rgatadi. Nazariya amaliyatga ishonch bahsh etadi. Nazariyasiz amaliyot qanotsiz qush, shuning uchun ham har bir o`qituvchi metodikani albatta bilishi shart. Metodika hayotda qo`llash mahoratini keltirib chiqaradi. Metodikani bilmagan o`qituvchi; birinchidan, ko`r-ko`rona ish olib boradi; ikkinchidan, mehnat natijalariga erisha olmaydi; uchinchidan, o`qituvchilik faoliyatida hatto kamchiliklarga yo`l qo`yadi. Bugungi o`zbek jamiyatni o`zi uchun huquqiy davlat, inson huquqlari va shaxs erkinligi, demokratik fuqarolik jamiyatni, siyosiy hurfikrlilik (pluralizm), hokimiyatlar taqsimlanishi, qonun ustuvorligi, mustaqil sud hokimiyati kabi fundamental tushunchalarni qayta kashf etmoqda. Tan olish lozimki, jamiyat ijtimoiy siyosiy va ma`naviy hayotini zamonaviy marifiy tamoyillar asosida isloh etishda davlat va huquq benihoya katta rol o`ynaydi. Shu bois davlat tuzilishi, demokratik siyosiy tuzilishning mavjud bo`lishi, huquqiy munosabatlar oqilona tizimining tashkil etilishi ko`p jihatdan mamlakatimizdagi davlat-huquqiy institutlarning faoliyatiga bog`liqdir. Mustaqillik yillari mobaynida yurtimizda demokratik huquqiy davlat va bozor iqtisodiyotini qaror toptirish yo`lida huquqiy jihatdan ko`pgina ishlar qilindi. Respublikada davlat idoralarining, shu jumladan, huquqiy muassasalarining izchil tizimi shakllantirilmoqda. Demokratik institutlarni hayotimizga olib kiruvchi va bozor munosabatlarini ma`rifiyshaklda joriy etishga imkon beruvchi qonunlar majmui yaratilmoqda. Hozirgi vaqtda yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi, demokratik siyosiy tizim tarkibiy tuzilmalarini ham fuqarolik jamiyatni bo`g'inlarini vujudga keltiruvchi, inson huquqlari kafolatlari tizimini qaror toptiruvchi, bir so`z bilan aytganda, butun ijtimoiy-siyosiy hayotimizning huquqiy negizini barpo etadigan 300 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilindi. Ayniqsa, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganligi o`tgan mustaqil rivojlanish davrimizdagi qonun chiqarish faoliyatining gultoji bo`ldi. Huquq o`qitish metodikasi bo`lajak o`qituvchilarga dars berish yo`llarini o`rgatadi. Fanni o`qitish sifatini belgilashda metodika fani katta o`rin egallaydi. Metodika bilan qurollangan har bir o`qituvchi to`g`ri, ijodiy va samarali ishslash imkoniyatiga ega bo`ladi. Huquq fani o`qituvchisi zimmasiga yosh avlodni har

tomonlama yetuk va barkamol kishi qilib tarbiyalash singari katta va ma`suliyatli vazifalarni yuklaydi. Huquqni o`qitish va tarbiyalash metodikasi o`quvchilarga nimani o`qitish va qanday o`rgatish degan savolga javob berib: birinchidan, o`qituvchilarga fan asoslarini singdiradi; ikkinchidan, ularni o`rgatish metodlarini aniqlab beradi. Fan asoslari, huquq bo`yicha bilimning hajmi esa huquqshunoslik fani dasturida belgilab qo`yilgan. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 9 yanvarda “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qaroriga ko‘ra, bugungi kunda ta lim tizimida huquq fanini tegishli darajada tashkil qilinishi, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda, mashgulotlar zamonaviy ta'lif texnologiyalariga tayangan holda, o‘t kazilishi lozimligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanishi zarurligidan kelib chiqib, huquq fanlarini maqsadli, samarali va kafolatlangan natijali oqitish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Mirziyoyev Sh.M. —Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. – T.: —O'zbekiston, 2017.*
2. *Kenenova I. Xorijiy davlatlar konstitutsiyaviy huquqini o'qitish metodikasi va metodikasi / I. Kenenova // Qiyosiy konstitutsiyaviy sharh.-2009. - N 6.-S. 66-71.*
3. *Axundova S.L. Fanlararo aloqalar "Dunyoni bilish" fanining integrativ imkoniyatlarini amalga oshirish vositasi sifatida / Axundova S. L. // Zamonaviy fanning dolzarb muammolari.-2009. - N 2.-S. 52-56.*
4. *Urumov A.V. "Davlat va huquq nazariyasi" fanini o'qitishning didaktik tamoyillari / Urumov A. V. // Yuridik ta'lif va fan.-2010. - N 3.-S. 25-29.*
5. *Олий таълим. Меъёрий ҳужжатлар тўплами. –Т.: Шарқ, 2001. – Б.4.*